

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

0009-0002-4873-8023

TIL BIRLIKLARIGA ANTROPOTSENTRIK YONDASHUV: TIL VA MADANIYAT UYG‘UNLIGI

Karimova Zulnura G‘ulamqodirovna
Toshkent davlat agrar universiteti
Tillar kafedrasi dotsenti
purelight16.09@gmail.com

ANNOTATSIYA Jahon tilshunosligida, shu bilan birga, o‘zbek tilshunoslik sohasida til birliklarining sotsiopragmatik, lingvomadaniy hamda lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq etish tobora dolzarb masalalardan bo‘lib bormoqda. Ushbu maqolada so‘z-gaplarga antropotsetrik yondashuvning nazariy asoslari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: antropotsentrik, sotsiopragmatik, lingvokulturologik, lingvopoetik, tushunchalar, madaniy xususiyatlar.

АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ЯЗЫКОВЫМ ЕДИНИЦАМ: ГАРМОНИЯ ЯЗЫКА И КУЛЬТУРЫ

АННОТАЦИЯ В мировой лингвистике, в том числе и в области узбекского языкознания, изучение социопрагматических, лингвокультурологических и лингвопоэтических характеристик языковых единиц становится все более актуальной проблемой. В статье анализируются теоретические основы антропоцентрического подхода к речи.

Ключевые слова: антропоцентрический, социопрагматический, лингвокультурный, лингвопоэтический, концепты, культурные особенности.

ANTHROPOCENTRIC APPROACH TO LANGUAGE UNITS: THE HARMONY OF LANGUAGE AND CULTURE

ABSTRACT In world linguistics, as well as in the field of Uzbek linguistics, the study of the sociopragmatic, linguocultural, and linguopoetic characteristics of language units is becoming an increasingly relevant issue. This article analyzes the theoretical foundations of the anthropocentric approach to speech.

Key words: anthropocentric, sociopragmatic, linguocultural, linguopoetic, concepts, cultural characteristics.

KIRISH. Jahon tilshunosligida til birliklariga antropotsentrik yondashuv asosiy metodologik yo‘nalishlardan biriga aylandi. Bu yondashuv inson tafakkuri, dunyoqarashi hamda muloqot jarayonidagi faoliyatini tahlil qilib, inson markazda turgan murakkab tizim ekanligini anglatadi. Professor A.Mamatovning ta‘biri bilan aytganda, “Tilshunoslikda til birliklarini lingvopragmatik, lingvokognitiv, antropotsentrik pradigma kabi yangi ilmiy konsepsiyalar asosida tadqiq etish ustunlik qilmoqda.” [1] Madomiki shunday ekan, turli tillarda inson faoliyatini o‘rganishga qaratilgan antropotsentrik tahlillar yuzaga kelishi tabiiydir. Bu borada ta‘kidlash joizki, turli tillarda so‘z-gaplar inson faoliyati bilan bog‘liq tushunchalar emotsional-ekspressiv ifoda asosida shakllanar ekan, ularni pragmatik, til va madaniyat munosabatida o‘rganish yanada dolzarblik kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. O‘tgan asrning oxiridan boshlab dunyo tilshunosligiga til birliklarini antropotsentrik aspektda tadqiq etish tamoyili kirib kelgach, o‘zbek tilshunosligida ham bu yo‘nalishda qator ishlar amalga oshirila boshlandi. Keyingi yillarda tilshunosligimizda til birliklarini sotsiolingvistik aspektda tadqiq etishga jiddiy e‘tibor qaratildi va bu sohada ko‘plab yutuqlarga erishildi. Shunday bo‘lishiga qaramay, turli tizimli tillarda aynan so‘z-gaplarning sotsiopragmatik jihatdan qiyosiy o‘rganish oldimizda turgan muammolardan biri sanaladi.

Demak, til sathlarini tahlil qilishda antropotsentrik yondashuv 20-asrning oxirlaridan boshlab ancha rivojlandi va hozirga kelib turli tizimli tillarda lisoniy birliklarni har jihatdan tadqiq qilishga ancha e‘tibor kuchaydi. Tilshunos N.Mahmudov antropotsentrik paradigmani tadqiqotchi diqqatining bilish obyektidan subyektiga ko‘chishidir, ya‘ni bunda inson tilning ichida va til inson tarkibi, ya‘ni vujudida o‘rganiladi deb ta‘kidlaydi: “Shuning uchun antropotsentrik tadqiq, tilning ko‘pqirrali hodisa sifatidagi mohiyatini ochadi, insonlarning moddiy, ma‘naviy, madaniy, etnik va etikaviy, estetik tushuncha va tasavvurlari bilan bog‘liqligini va tilni mana shunday o‘rganishdan olingan quyma xulosalarni ilmiy umumlashtiradi.”[2;44] Olimning bu fikrlariga qo‘shilgan holda, tilshunos D.T.Yuldashev ham, antropotsentrik tadqiq yo‘nalishi tushuncha va tasavvurning shakllanishida tilning rolini hamda bunda til (nutq) egasi bo‘lgan inson faoliyatining ahamiyatini o‘rganadi deb, qayd etadi.[3;14] Demak, antropotsentrik yondashuv tilni inson faoliyati bilan chambar-chars bog‘lab o‘rganishga qaratilgan. Aytish joizki, bu yondashuv zamonaviy tilshunoslikning sotsiolingvistik, pragmatik, lingvokultrologik, kognitiv hamda lingvopoetik jihatlarining kesishgan nuqtasi hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosida antropotsentrik yondashuvga alohida urg‘u bergan olim D.Xudayberganova antropotsentrik paradigmaning shakllanishi til egasi – so‘zlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan bog‘liqdir deb, yozadi. [4;3] Olimaning g‘oyalarida inson - til egasi sifatida markaziy o‘rinda ekanligi alohida ta‘kidlangan. Demak, inson – til ijodkori, undan foydalanuvchi shaxs markaziy subyektdir. Dunyo tilshunosligida antropotsentrik yondashuv tilning inson hayotidagi o‘rnini yanada chuqurroq anglatib, tilni insonning real hayoti, ruhiy va ijtimoiy holati, turmush tarzi, dini, dunyoqarashi bilan bog‘lab tadqiq qilish zaruratini

ko‘rsatadi. Tilshunosning ta’kidicha, til va shaxs munosabatlarini yoritib berishda eng muhim manba bu matndir. Zero, u tilning barcha sathlarini mujassam etuvchi nutqiy tuzilma bo‘lishi bilan birga, so‘zlovchi (yozuvchi) shaxsining lisoniy kompetensiyasini o‘zida to‘liq namoyon etuvchi hodisa hamdir. Matnning tashqi va ichki tuzilishi muayan millatga mansub til egalarining shaxsning lisoniy qobiliyatini aks ettiruvchi o‘ziga xos ko‘zguga o‘xshatish mumkin. [4;5] Binobarin turli tillarda so‘z-gaplar orqali millatga xos madaniyat, ma’naviyat, dunyoqarash, urf-odatlar aniqroq anglashinishi mumkin. So‘z-gaplarning lingvokultrologik tahlil qilish orqali ularning mohiyati yanada chuqurroq namoyon bo‘ladi. Masalan, *hayrli bo‘lsin, sog‘ bo‘ling, hormang* kabi so‘z-gaplar o‘zbek xalqining madaniy me‘yorlarini ko‘rsatsa, *здравствуйте, привет, добро пожаловать* kabilar rus xalqi madaniyatiga, *hello, welcome* birliklari ingliz muloqot me‘yorlariga xoslikni ifodalaydi.

Tilshunoslarning ta’kidlashicha, til u yoki bu millat madaniyatining elementi, qismi, fakti, omili, shakli, manbasi, saqlovchisi, xotirasi, translyatori, mavjudlik sharti hisoblanadi. Lingvomadaniyatshunoslik integrativ mustaqil fan sohasi sifatida olamning lisoniy manzarasi va til shaxsining milliy o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi hamda yuzaga chiqaradi.[1] Demak, lingvokultrologiya til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy aloqani ifodalar ekan, bu borada so‘z-gaplar til orqali namoyon bo‘lib, millatning madaniy xususiyatlarini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Turli tillarda madaniy tasavvurlarni quyidagi so‘z-gaplar orqali ham kuzatishimiz mumkin: o‘zbek tilidagi “*osh bo‘lsin*” ifodasi nafaqat ovqatga bog‘liq bo‘lgan oddiy ibora, balki o‘zbekona mehmondo‘stlik, o‘zaro hurmat hamda ovqatlanish madaniyatining aksi sanaladi. Har bir millatda bunday iboralar o‘ziga xos tarzda qo‘llanadi. Rus va ingliz tillardagi “приятного аппетита” va “*good appetite*” ham yuqoridagi “*osh bo‘lsin*” ifodasiga yaqin, biroq ularning talaffuzidagi эҳтиром даражаси ўша миллат маданий хусусиятларини ифодалайди.

Bundan tashqari, o‘zbek, ingliz va rus tillaridagi bir qator so‘z-gaplar mavjudki, ular madaniy merosni saqlashga xizmat qiladi. O‘zbek tilidagi *qulluq bo‘lsin, tasanno, tasadduq*, rus tilidagi *увы*, ingliz tilidagi *alas, lo* kabi birliklar hozirda kamroq qo‘llansa-da, ular ma’naviy qiymatini saqlagan holda millat tarixi hamda qadriyatlarini namoyon qiladi.

Demak, so‘z-gaplar oddiy til birliklari emas, balki ular millatning madaniy ongi, dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari hamda tarixiy meros va qadriyatlarning ifodasi sifatida baholanadi. Ularning lingvokultrologik tadqiqi esa, mana shu qirralarni ochib berishga imkon beradi.

Shunday qilib, turli tillarda so‘z-gaplarning lingvokultrologik tahlilida, ular orqali millatga xos urf-odatlar, milliy ruhiyat, madaniy an‘analar va ma’naviy qadriyatlar aks ettirilsa, sotsiopragmatik tahlil turli tillardagi so‘z-gaplarning ijtimoiy vazifasi, suxbat jarayonida kommunikantlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rnatish hamda shakllantirishdagi rolini chuqurroq anglashga imkon beradi. Boshqacha aytganda, ularni turli tillarda millatga xos madaniy mazmun va mohiyati hamda ijtimoiy xoslanishi va vazifalarini bir vaqtning o‘zida tahlil qilish, so‘z-gaplarni nafaqat til nuqtayi nazardan, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan ham

anglash imkonini beradi. Bundan tashqari, inson – asosiy subyekt ya’ni markazda ekan, so‘z-gaplar insonlarning o‘ziga xos turli xarakterli ekanliklarini, hayot tarzi, urf-odatlarini, munosabat va ehtiromini yuzaga chiqarishga yordam beradi. Xullas, turli tillarda so‘z-gaplarning lingvokulturologik va sotsiopragmatik tahlilini antropotsentrik yondashuv orqali uyg‘unlashtirish insonlarning madaniy va muloqot jarayonidagi ijtimoiy munosabatlarini yanada teranroq o‘rganish imkonini beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Shunisi xarakterliki, ingliz tilshunosligida undovlarning ijtimoiylik xususiyati, muloqot jarayonida ishlatilish me’yorlari ham yoritilgan.[6] F.Ameke undov so‘zlarning qo‘llanish xususiyatlari haqida quyidagi xulosani bildiradi: “Undov so‘zlar pragmatik nuqtayi nazardan olib qaralganda, so‘zlovchi munosabatlarini va muloqotga kirishish maqsadlarini ochib beruvchi birliklar guruhi bo‘lib, ular holat va vaziyatga yo‘naltirilgan bo‘ladi”.[6;8]

P.G.Montes undovlarning qo‘llanish xususiyatini nutq egasining maqsadi bilan bog‘laydi. Uning fikricha, “ko‘pgina undovlar so‘zlovchining tinglovchiga hurmati ostida uning ichki munosabatini jamlaydi”.[7]

F.Ameke va D.Vilkins undovlar tasnifida ularning ijtimoiy muloqotda qanday vazifani bajarishini tahlil qilish lozimligini ta’kidlaydi. Bu borada ular tinglovchining mavjudligi (ya’ni, undov birliklari nutqda birovga qarata aytilgan bo‘lishi ham mumkin yoki hech kimga qaratilmagan bo‘lishi ham mumkin), muloqot turi (qo‘llanilayotgan undovlar muloqotning qaysi turiga taaluqli ekanligi, kontekst yoki kommunikantlar o‘rtasidagi ahamiyati) va ta’sir natijasi (undovlarga nisbatan javob) nuqtayi nazardan tahlil qilgan. Ularning ta’kidicha, lingvistik pragmatika nuqtayi nazaridan, ba’zi undovlar hech kimga qaratilmagan, boshqalari esa aniq bir murojaat qiluvchiga qaratilganligini tasdiqlovchi dalillar mavjud. Bu holatni haqoratga oid ikkinchi darajali undovlar orqali tushuntirish mumkin. [6;21] Xullas, olimlar so‘z-gaplarni (undovlar) sotsiopragmatik vazifasiga asosan, adresat, suxbatdosh va ta’sir nuqtayi nazaridan, quyidagicha tasniflaydi:

1. Gapiruvchining his-tuyg‘ulari, xohishlari yoki munosabatlarini avtomatik ravishda ifoda etuvchi undov so‘zlar, masalan, *Ow* (og‘riq), *Ugh* (ijirkanish), yoki *Wow!* (hayrat), odatda aniq bir shaxsga qaratilmaydi. Shuningdek, tushkunlik yoki boshqa hissiyotlarni ifoda etuvchi *Fuck!*, *Shit!* kabi undov so‘zlar ham bu toifaga kiradi.

Shunga binoan, o‘zbek va rus tilida ham bu kabi so‘z-gaplarni aniqlashimiz mumkin. Masalan, *aŭ/oŭ* (og‘riq), *φy, эф/φy* (jirkanish), *əyŭ/bay* (hayrat) kabi. *Voy, xudoyim / O, боже!* kabilar boshqa hissiyotlarni ifoda etuvchi undov birliklardir.

2. Bu toifaga kiruvchi undovlar suxbatdoshga qaratilgan undov birliklardir. Masalan, ingliz tilidagi *Hey!*, *Shh!* kabi. Ular diqqat jalb qilish yoki lingvistik bo‘lmagan harakatlarni talab qilish uchun ishlatiladi. Bu toifaga hayvonlarni chaqirish va haydash ifodalari ham kiradi.

Bu toifaga o‘zbek va rus tilidagi *hey/ey, muu/muuqe, чyx/чy* kabi buyruq-xitob so‘z-gaplari mansubdir.

3. Muloqot jarayonida tinglovchi tomonidan fikrga munosabat bildirilishi, ya’ni suxbatni davom ettirishni rag‘batlantirish yoki muloqotni qo‘llab-quvvatlovchi undovlar: *mhmm, uh-huh*.

O‘zbek va rus tilidagi xo‘sh/nu kabi so‘z-gaplar bu guruh birliklariga muqobildir.

4. Undov so‘zlarning yana bir turi suhbatdoshning gapiga javob berish uchun ishlatiladi va mustaqil nutqiy burilishni tashkil qiladi. Ular tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi javob bo‘lishi mumkin: *yes, yeah, mhm, no, ok*.

O‘zbek va rus tillaridagi *ha /да, yo‘q/нет, xo‘p/ладно* kabi tasdiq-inkor so‘z-gaplariga to‘g‘ri keladi.

5. Bu toifa undovlarga salomlashish, uzr so‘rash, minnatdorchilik bildirish kabi ifodalar kiradi. Masalan, *Bye – bye, Hi – hi, Sorry!, Thanks!, Ta!*. Bu undovlarga boshqa undov birliklari bilan javob berish talab qiladi. Masalan, - *Hello! – Hi!*

O‘zbek va rus tillarida bu toifaga salomlashuv, ya’ni *Assalomu alaykum – Va alaykum assalom/Здравствуй – Здравствуй, Rahmat – Arzimaydi/Спасибо – Пожалуйста, Хайр – Хайр/ До свидания – До свидания, Xush kelibsiz – Xushvaqt bo‘ling /Добро пожаловать / спасибо, благодарю* kabi ifodalar kiradi.

6. Suxbat jarayonida pauzalarni yoki ikkilanishni ifodalovchi undov so‘zlar bu toifani tashkil qiladi. Masalan, *um, uh* kabilar.

O‘zbek va rus tillarida ham bu guruhga kiruvchi undov so‘zlar mavjud bo‘lib, ular *hmmm/хммм* kabilardir. Bu toifadagi undov so‘zlar pragmatik jihatdan muloqotni davom etishiga ishora ma’nosini beradi. Biroq ularni nutqda ko‘p qo‘llash pragmatik to‘siqni hosil qilishi mumkin.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan so‘z-gap toifalari ilmiy nuqtayi nazardan muloqot jarayonini shakllantirishga xizmat qilib, ularning sotsiopragmatik tahlili muhim ahamiyatga ega. Bu so‘z-gaplar kommunikantlar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqaning davomiyligini ta’minlaydi, shuningdek, ijtimoiy munosabatlarda odob-ahloq, hurmat va ehtirom belgilari sifatida namoyon bo‘ladi. Turli tillarda so‘z-gaplar kontekstga qarab turli vazifalarni bajaradi. Masalan, rasmiy muloqotda so‘z-gaplardan foydalanish ehtiyotkorlikni, mulohazani talab etsa, norasmiy muloqotlarda erkin so‘zlashuv muhitini, samimiylilik va yaqinlik munosabatlarni tiklaydi. Xullas, turli tillardagi so‘z-gaplarni sotsiopragmatik tahlili turli xalqlar kommunikantlari o‘rtasidagi ijtimoiy aloqani chuqurroq anglash bilan birga, ularni muloqot jarayonidagi ma’no va mazmun nozikliklarini hamda gapdagi vazifalarini to‘la tahlil qilish imkonini beradi.

F.Ameke qayd etadi: “Pragmatik nuqtayi nazardan undovlar ijtimoiy o‘zaro ta’sirning murakkab to‘qimasining bir qismi bo‘lib, ularni faqat diskursdagi amaliy ijrosini kuzatish orqali tushunish mumkin. Ayniqsa, Yevropa tillaridan boshqa tillarda undovlarning o‘zaro ta’sir jarayonida qo‘llanilishiga qaratilgan korpusga asoslangan etnografik tadqiqotlar juda zarur. Shuningdek, undov so‘zlarning umumiy ma’nolarini qanday ifodalash va ularning onlayn interpretatsiya jarayoniga qanday ta’sir qilishi haqidagi savollarga javob beruvchi tadqiqotlar ham zarur. Undovlar avtomatik ravishda, deyarli “instinktiv” ravishda ishlab chiqilsa ham,

ularning shakli va qo‘llanilishi madaniy qoidalar va ijtimoiy munosabatlar bilan chegaralangan.”[6;16] Holbuki, so‘z-gaplar boshqa leksemalardan farqli ravishda, emotsional va ijtimoiy ta’sir ko‘rsatish hamda kommunikantlar o‘rtasidagi munosabatlarni shakllantirish va mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ularning mazmun va maqsadi deyarli muloqot jarayoniga bog‘liq bo‘lib, ular vaziyatga qarab o‘zgarishi mumkin. Bu holat turli madaniyatlarda va ijtimoiy muhitda turlicha aks etadi. Boshqacha aytganda, ijtimoiy muhit so‘z-gaplar ma’nosini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ular ijtimoiy vaziyatga bog‘liq holda o‘zgarib turadi.

Tilning birinchi funksiyasi an’anaviy va sistem-struktur tilshunoslikning o‘rganish obyekti bo‘lsa, ikkinchi funksiyasi lingvopoetikaning o‘rganish obyektidir. Lingvopoetika – lingvistik poetikaning qisqargan shakli bo‘lib, badiiy asarlarda qo‘llanilgan lingvistik birliklarning (fonetik, morfemik, leksik va boshq.) badiiy-estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini o‘rganadi.[8;151] Shuni aytish mumkinki, til birliklarga lingvopoetik yondashuvda, boshqacha aytganda, tilning badiiy vazifalarini o‘rganishda ham ham inson markaziy o‘rinda turadi. So‘z-gaplarni lingvopoetik jihatdan tahlil qilish badiiy asarlarda qo‘llanilgan so‘z-gaplarning inson ruhiyatiga, his-tuyg‘ulariga, estetikasiga ta’sirini va asar qahramoni yoki personajlarning emotsional va ma’naviy dunyosini ifodalashdagi rolini ochib beradi. Xullas, so‘z-gaplarga lingvopoetik yondashuv antropotsentrik yondashuvning bir bo‘lagini tashkil qiladi deb aytishimiz mumkin. Xususan, badiiy matnlar vositasida insonga xos bo‘lgan dunyoqarash o‘rganiladi.

Turli tizimli tillarda so‘z-gaplarning konnotativ ma’nosida turli xil nozikliklarni kuzatishimiz mumkin: so‘z-gaplarda emotsionallik mavjud bo‘lib, ular orqali ijobiy va salbiy bahoga ega ottenkalar o‘z ifodasini topadi, mazkur birliklarda ekspressivlik bo‘lib, ular orqali voqealar tez va obrazli gavdalanadi, bu birliklar stilistik jihatdan bo‘yoqdor bo‘lib, asar qahramonining nutqida ham turli rang-baranglikni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Tilshunos olim D.Xudoyberganovanning ta’kidicha, biror yozuvchi yoki ijodkorning nutqiy uslubini uning so‘z qo‘llash yoki jumla tuzish mahorati nuqtayi nazari bilan tadqiq qilish usuli bugungi kun talabiga javob bermaydi. Shu boisdan matn yaratilishi masalasini shaxs uslubi bilan uzviylikda o‘rganish matnning lingvistik jihatlariga teranroq nazar bilan qarashga olib keladi.[4;7] Tilshunos N.I. Jinkinning “Inson alohida gaplar vositasida emas, matn vositasida so‘zlaydi”, degan fikrlarini keltiradi va shu sababli ham muayyan shaxs uslubi u yaratgan matnlar asosida tadqiq etilsagina, kutilgan natijalarga erishishi mumkinligini ta’kidlaydi. Darhaqiqat, yozuvchi real, ta’sirli va kitobxonni o‘ziga jalb eta oladigan umrboqiy asar bo‘lishi uchun leksik birliklarni mohirona qo‘llay olishi va vo lozim.

XULOSA. Shunday qilib, inson – asosiy subyekt ya’ni markazda ekan, so‘z-gaplar insonlarning o‘ziga xos turli xarakterli ekanliklarini, hayot tarzi, urf-odatlarini, munosabat va ehtiromini yuzaga chiqarishga yordam beradi. Xullas, turli tillarda so‘z-gaplarning lingvokulturologik, sotsiopragmatik va lingvopoetik tahlilini antropotsentrik yondashuv orqali

uyg‘unlashtirish insonlarning madaniy va muloqot jarayonidagi ijtimoiy munosabatlarini yanada teranroq o‘rganish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Mamatov A., Jabborova A. Frazologizmlarning antropotsentrik lingvomadaniy tadqiqi. *Journal of Foreign Languages and Linguistics*. Том 4 № 9. 2021. - 10 b.
2. Махмудов Н. Маърифат манзиллари. – Тошкент: 1999. – Б. 44
3. Юлдашев Д.Т. Атоқли отларнинг антропоцентрик тадқиқи. Филол.фан.д-ри дисс. Тошкент – 2021. Б. 14.
4. ХудайбергANOVA Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. ЎРФА. “Фан” нашриёти. Тошкент – 2013.
5. Каримова З.Ғ. Ўзбек ва инглиз тилларида сўз-гапларнинг социопрагматик хусусиятлари. ф.ф.ф.д. (PhD). дисс. – Тошкент, 2021. – 140 б.
6. Felix K. A., Wilkins D. P. Interjections. *Handbook of Pragmatics*. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publ. Co, 2006. - 21 p.
7. Montes R.G. The development of discourse markers in Spanish: Interjections // *Journal of Pragmatics* 1999. –№ 31.– P. 1289–1319.
8. Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшуносликнинг назарияси. Ў.Р.Ф.А. “Фан” нашриёти, 2008. Б.151.
9. Karimova Z. G. Linguopoetic features of offensive words in Uzbek and English Literary texts. *Cahiers Magellanes-Ns*. Volume 06 Issue 2. 2024.